



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARGA O'TISHNING DOLZARBLIGI VA SOHA TAHLILI

Matkarimov Ulug'bek

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlar va ularning standartlari borasida so'z boradi va hisobotlarning xalqaro transformatsiyasiga doir bir qator kamchilik hamda mummolar o'rganiladi, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qancha ilmiy asosga ega yechimlar beriladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, MHXS, transformatsiya, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, statik analiz.

Kirish. O'xtashish o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz tili umumjahon tili bo'lganidek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) umumjahon biznes tili hisoblanadi. Mazkur standartlar kompaniyalar o'zlarining moliyaviy holatlari to'g'risida hisobotni qanday tarzda tayyorlashini belgilaydi. Ushbu standartlarga asoslangan hisobotni butun dunyoda tushunishadi va unda ko'rsatilgan har bir hisobot anglanish jihatdan global miqyosda qulaydir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritilishini tashkil etdi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni ham



milliy standartlar, ham MHXS asosida tayyorlay boshlashdi. Korxonalarining buxgalteriya hisobotini tayyorlashda xalqaro standartlar bo'lmasa, bu bir necha nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, biron bir «Shirin Corporation» xitoylik «Shin Jin Company»dan uskuna buyurtma qildi. «Shin Jin Company» ushbu uskunani logistika kompaniyasi orqali yuklab yo'lga chiqardi va o'zining moliyaviy hisobotida uskunani sotganligi haqida ma'lumotni ko'rsatdi hamda uskunani tashkilot balansidan chiqardi. Ammo uskuna yo'lda bo'lganligi va xaridor uni hali olmaganligi sababli «Mansur Corporation» moliyaviy hisobotida ushbu uskunani sotib olganligi haqida ma'lumotni ko'rsatmaydi va balansiga kirim qilmaydi. Natijada, global iqtisodiyotda ushbu uskuna yo'qolib qolishi mumkin. Aynan shu muammo hozir O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda ham dolzarb sanaladi. MHXS ga o'tish bir tomondan iqtisodiyotga nafi tegadi, ya'ni xalqaro moliya tashkilotlari hisoblangan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarni kengaytirib, iqtisodiyotga chet el investitsiyasini jalb etadi, mamlakatning investitsiyaviy muhitini yaxshilaydi. Shu bilan bir qatorda hisob ishlarini xalqaro darajaga ko'tarishda MHXS muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan esa aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslarning bu boradagi ish hajmining va mablag'lar sarflanishining oshishiga olib keladi.

MHXS transformatsiyasi tahlili, soha muammolari

Investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan MHXSlar asosida hisob yuritishdan davlat manfaatdor: o'z mablag'larining sarflanishi ustidan nazorat olib borishi, to'g'ri va obyektiv, shaffof ma'lumotlarga hech qanday qo'shimcha xarajatlarsiz ega bo'lishidan investor va ta'sischi manfaatdor, aks holda ular yana qo'shimcha mablag' sarflab hisobotlarni transformatsiya qildirish xarajatlarini amalga oshirishiga to'g'ri keladi.

MHXS ga o'tishda quyidagi muammolar yuzaga keladi:



- Amalda bo'lgan hisob yuritishga oid me'yoriy –huquqiy hujjatlarning o'zgarishi;
- MHXS ga o'tishda yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;
- MHXSni o'zbek tilida o'rganish uchun sifatli o'quv-qo'llanma, kitoblar yo'qligi;
- Kadrlarning xorijiy til(ingliz, rus tili)ni bilmasligi;
- MHXS va BHXS lari asosida parallel hisob yuritish ham, hisobotlarni MHXS asosida transformasiya qilishda ham xarajatlarning yuqoriligi;
- Ma'lumotlarning to'liq va shaffof aks ettirishga korxonalar rahbariyatining qarshiligi;
- MHXS lari asosida tuziladigan hisobot shakllarining tarmoqlar va sohalar bo'yicha aniq bir shakli(formasi)ning yo'qligi.

Va nihoyat, MHXSlari asosida tuzilgan hisobot ma'lumotlaridan foydalanish korxonalar boshqaruvida obyektiv menejmentlik qarorlarini, strategik rejalar qabul qilinishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga quyidagi ta'riflar keltirilgan: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(MHXS) bu - keng tarqalgan mafaatdor foydalanuvchilar uchun foydali bo'lgan moliyaviy hisobotni tayyorlashga umumiy yondashuvni belgilaydigan umumiy qabul qilingan talablar, prinsiplar, qoidalar va protseduralar tizimidir”. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti fanining alohida tarmog'i bo'lib, moliyaviy hisobotning konseptual asoslari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari zaruriyati, ishlab chiqilishi, ularning mazmuni, interpritatsiyasi va qo'llanilishining metodologik masalalarini o'rganuvchi qismidir”.

Istiqboldagi xorijiy investor O'zbekiston tashkilotlari tayyorlagan hisobotlarni tushunmaydi va shu sabab raqamlar to'g'ri aks ettirilganiga ishonmaydi. Hisobotlarni MHXSGa o'girib, auditdan o'tkazish esa ko'p mashaqqat, vaqt va xarajat talab qilishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda Coca-Cola zavodidagi davlat ulushini sotish uchun tanlov asosida – Rothschild & Co investitsiya banki (moliyaviy maslahatchi), Dentons yuridik firmasi (yuridik



maslahatchi), shuningdek, KPMG (moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish, shuningdek, kompaniyaning ustav kapitalidagi davlat ulushini baholash) kabi yetakchi xalqaro maslahatchilar jalb qilindi. O'zbekiston oldin ham MHXSga o'tishga harakat qilgan. Aksiyadorlik jamiyatlari va banklar amalda MHXSga asoslangan moliyaviy hisobotni taqdim etishi kerak edi. Afsuski, ushbu hisobotlar ko'pincha xalqaro auditorlik tashkilotlari yordamida tayyorlangan, chunki tashkilotlar o'zi tayyorlagan hisobotlar sifati qoniqarli bo'lmagan.

Taklif, mulohaza, yechim va xulosalar

MHXSga o'tishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda quyidagilarni inobatga olish lozim:

- MHXS ga o'tishda kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish uchun milliy sertifikatsiyalash tizimini joriy etish;
- Korxonalar rahbarlariga MHXS asosida tuzilgan hisobotlar nafaqat investor va tashqi foydalanuvchilar uchun balki korxonalar boshqaruvida to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun ham muhimligini anglatish;
- Korxonalar rahbarlarida moliyaviy hisobotlarda haqiqiy va real ma'lumotlarni aks ettirishga bo'lgan qiziqishni orttirish.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kursi» alohida fan sifatida o'rganilmoqda. Fikrimizcha, ushbu kurs «Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti» fanining ma'lum bir qismini o'rganadigan bo'lim bo'lib hisoblanishi kerak.

Ma'lumki, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti moliyaviy hisobotning standartlari asosida yuritiladigan tizim sifatida tavsiflangan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining me'yoriy huquqiy asosini tashkil etadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari «Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti» fanining bo'limi sifatida uning predmeti bo'lib, xalqaro standartlarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladigan obyektlar hisoblanadi. Ushbu obyektlarga moliyaviy hisobotning



elementlari hisoblangan pul mablagʻlari, baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar, shartli aktivlar, valyuta kursi oʻzgarishi, zaxiralar, qurilish shartnomalari, asosiy vositalar, aktivlarning qadrsizlanishi, nomoddiy aktivlar, segmentlar, davlat subsidiyalari va davlat yordamlari, tushumlar, qarzar boʻyicha xarajatlar, foyda soligʻi, moliyaviy instrumentlar, bogʻliq tomonlar, korxonalarining birlashishi, hisob siyosati va unda yoʻl qoʻyilgan xatolar, oraliq moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot konsolidatsiyasi, inflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot va boshqa obyektlarni kiritish mumkin. Anʻanaviy milliy hisobchilik tizimining bugungi holati xususida fikr yuritishdan oldin shuni alohida taʼkidlash oʻrinliki, Oʻzbekistonda boshqa davlatlardagi kabi biznes subyektlarida hisob xizmatlarining aniq tartib-taomillari shakllantirilgan. Bu jarayon Oʻzbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi Qonuni bilan tartibga solinsa, keyinchalik qabul qilingan boshqa hujjatlar orqali milliy hisobchiligimiz birmuncha takomillashtirildi. Ammo ushbu oʻzgarishlarga qaramasdan biznes subyektlari boshqaruvi, bir tomondan, faoliyatni rivojlantirish va moliyalashtirishda yigʻilib qolgan muaomollarni hal etishdagi funkcionalligi oʻz qobigʻidan nariga oʻta olinmaganliklari bilan izohlansa, boshqa tomondan esa yuqori aniqlikdagi xarajatlar evaziga maʼlum boʻlgan ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarga bogʻliq maʼlumotlar bazasi tashqi qiziquvchilarni talablariga ham shaklan, ham mazmunan mos kelmas edi. Bundan koʻrinadiki ularning eʼtiboridan chetda qolish asosiy omil boʻlib kelayotgandi. Aslida, har qanday biznes jarayoni shaffolik taʼminlangan joyda ravnaq topadi.

Xulosa

Hozirgi globallashtirish jarayonida MHXS dan foydalanishning zarurligini quyidagi omillar bilan belgilashimiz mumkin:



- turli mamlakatlarda investorlar va aksionerlar potensial kompaniyalarning bir xil tamoyillar, ya'ni taqqoslanuvchanlik asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni yaxshiroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- turli mamlakatlarda turli fond birjalariga ularning har biriga o'sha mamlakatning standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotdan ko'ra hammasi uchun yagona tan olinadigan bitta moliyaviy hisobotni tuzish maqsadga muvofiqdir. Natijada hisobotni tuzish xarajatlari ham qisqaradi va kapitalni jalb qilish imkoniyatlari ham kengayadi.

MHXS larning turli xil milliy hisob tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilishi ko'zda tutilganligi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. Hozirgi kunda xalqaro standartlar tarkibi bo'yicha uch qismdan iborat. Birinchi qism – kirish, ikkinchi qism – hisob obyektining tavsifi, uchinchi qism – buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatimizda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar orqali davlat sektori faoliyatining natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi hamda axborotlarni shaffofligini oshiradi, Budgetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni sifatli va yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarning ishonchliligi va to'liqligining oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

MHXS dan foydalanish har bir mamlakat uchun birdek qabul qilinishi lozim bo'lgan hujjatlardan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot rivojlangan davrdan imkon qadar iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun unumli foydalanishimiz zarur. Ya'ni, har bir mamlakat o'z milliy standartlaridan foydalanishi va buning natijasida xorijiy mamlakat investorlari uchun hisobotlarni tarjima qilishda yo'qotiladigan vaqt va sarf-xarajatlar mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun muhim bir to'siq bo'lib hisoblanishi mumkin.



Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda hamda mamlakatimizda MHXSdan foydalanishni yanada jadallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin: birinchi navbatda xalqaro MHXS va milliy standartlarimiz orasidagi tafovutlarni yo'qotishimiz zarur, ya'ni hisobot shakllarini tuzish tartibini takomillashtirish lozim. Har bitta investor milliy standartlar asosida hamda MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlardan foydalanganda farq topmasligi kerak; bu sohada malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada jadallashtirish lozim, chunki aynan ushbu kadrlar iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi; MHXSni mamlakatimizga transformatsiya qilar ekanmiz, har bir tashkilot foydalana olishi uchun yagona integratsiyaga ega bo'lgan dastur ishlab chiqish zarur. Chunki, ushbu dastur orqali biz hisobotlarda inson omilini kamaytirishga va vaqtdan samarali foydalanishga erishishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda barcha uchun tushunarli bo'lgan hisobot standartlaridan foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu orqali biz xalqaro miqyosda o'z reytingimizni yanada yuqoriga ko'tarishimiz, hisobotdan foydalanuvchilar ko'lamini kengaytirishimiz hamda ushbu hisobotlar shaffofligini oshirishga erishishimiz, hamda xalqaro globallashev sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishimiz mumkin bo'ladi.

Tahlillar, bir qator professor-olimlarning maqola va qo'llanmalarida keltirilgan mazmunli fikrlar hamda ilmiy qarashlar asosida shuni aniq ayta olamizki, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari yuqorida aytib o'tkanimizdek yutuqlarga sabab bo'ladi. Ushbu izlanishlar natijasida buxgalteriya hisobi standartlari xalqaro tamoyillari, konsepsiyasi va milliy transformatsiyasi asoslari naqadar dolzarbligi va murakkabligi to'g'risida ilmiy natija oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-aprel.
2. SH.M.Mirziyoevning «MHXSga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4746047>
3. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”. Tarjima. A. Rizaqulov, B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. T.: - 2004.
4. Shavkatova , S. ., & Nabijonov , O. . (2022). INNOVATSIYA FAOLIYATINING ANAMIYATI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(11), 4–7. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/4088>
5. Отабек Ганиевич Набижонов, Зоҳиджон Раббимқул Ўғли Хужамқулов, & Ф. Б. Шакирова (2022). ИННОВАЦИЯЛАР НЕГИЗИДА БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (4), 326-334.
6. Набижонов, О., Шавкатова, Ш. ., & Сатторова , С. . (2022). КОРХОНАЛАРДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(7), 27–29. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/1918>
7. Ugli, A. S. O., Ganiyevich, N. O., Ugli, Y. S. Z., & Ugli, K. R. A. (2021). About how cheap (actually very expensive) loans may not enrich the poor. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2191-2193.
8. Otabek Ganiyevich Nabijonov, & Sh. A. Kholbutaeva (2022). THE ROLE OF CONSULTING IN THE MODERN MARKET ECONOMY. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 5-8.